

BUYUK IPAK YO'LI VA UNING INSONIYAT TARIXIDAGI O'RNI

Zaynobiddinova Maftuna Muhammadkarim qizi

Andijon Davlat Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6541897>

Annotatsiya: Buyuk ipak yo'li-insoniyat rivojlanishi tarixining ,uning birlashuviga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga ,hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishning o'ziga xos bo'lgan hodisasidir.Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lab o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi.Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining insoniyat tarixida tutgan o'rni to'g'risida atroflicha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Antik, YUNESKO, BMT, ekspeditsiya, deklaratsiya, lazurit, Rixtgofen, ipak, sog'diyona, qit'a, prezident, muloqat yo'li

Agar O'zbekistonning uzoq o'tmishiga nazar solsak ham, yurtimiz uzoq qadimdanob od o'lkalardan bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Buyuk ipak yo'li esa – qadimgi va o'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan qit'alararo karvon yo'li.M.avv II - asrdan XVI asrgacha mavjud bo'lgan.Buyuk ipak yo'li atamasi qadimda ishlatilmagan.Uni tarixiy, geografik va madaniy jihatini ilmiy o'rganish amalda ko'plab mamlakat olimlari tomonidan XIX asrning 2-yarmidan boshlangan.Uni tadqiq etishga G'arbiy Yevropa ,Rossiya va Yaponiyalik olimlar katta hissa qo'shgan.Xususan,Yaponiyada Buyuk ipak yo'li ekspeditsiyasi nashr qilindi.1877-yil mashhur nemis olimi Karl Rixtgofen o'zining "Xitoy" nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini "Ipak yo'li " deb atagan.Keyinchalik "Buyuk ipak yo'li atamasi" qabul qilingan.1987-yil YUNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMT ning umumjahon deklaratsiyasi doirasida Ipak yo'li –"muloqat yo'li"xalqaro dasturini qabul qildi.Bu dastur O'rta Osiyo xalqlari boy

madaniy tarixlarini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi -sharq bilan g'arb o'rtasida yanada mustahkam madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatalarni yaxshilashdan iborat. Ko'plab xalqato ilmiy konferensiya va seminarlar o'tkazildi. O'zbekistonda Buyuk ipak yo'lini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. 1995 yil 2-iyunda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish sohasidagi chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni e'lon qilingan. Tarixga nazar tashlasak, O'rta Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, m. avv II -asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo hududlari bilan savdo aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, Sog'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgan sari savdo sotiq va hunarmandchilik ham rivojlanib bordi.

Xulosa qilib aytganimda, m. avv II -asrda paydo bo'lib, milodiy XVI -asrga qadar mavjud bo'lgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik va almashinuv madaniyatlarini boyib borishi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyligini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari // Mas'ul muharrir Alimova D-T., Sharq, 2000
2. Sodiqov H. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. T.: Sharq 2011
3. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi- T: Tafakkur Bo'stoni, 2011
4. Sobirov, J., & Yunusova, H. (2022). MA 'RIFATLI JAMIYAT YARATISHDA O 'ZBEK YOSHLARINING SALOHİYATI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 11-14.